

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi
“Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Xorijiy g‘o‘za navlaridagi ko‘sak qurti (Bt) va (Gt) glifosatga bardoshli genlarni mahalliy navlarga o‘tkazish orqali respublikaning turli tuproq-iqlim sharoitida etishtirishga mos tezpishar, tola chiqimi va sifati yuqori navlarini yaratish hamda urug‘chiligini tashkil etish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - shu kungacha tadqiqotlarda olingan g‘o‘zani tezpishar tola chiqimi yuqori bo‘lgan istiqbolli g‘o‘za navlarni tanlab olinadi; - xorijdan olib kelingan g‘o‘za navlaridagi ko‘sak qurtiga va gerbitsidga bardoshlilik belgilarini mahalliy navlarga o‘tkazish uchun ajratib olingan F2B1 duragay o‘simliklarida chatishtirish o‘tkaziladi; - olingan F3B2 duragay o‘simliklarida mahalliy va xorijiy g‘o‘za navlariga nisbatan qimmatli xo‘jalik belgi va xususiyatlarining o‘zgarishi tahlil qilinadi, tanlov olib boriladi; - mavjud g‘o‘za navlarida bir yil davomida 2 marta chatishtirish o‘tkaziladi va natijada 2026 yil so‘ngigacha F4B3 duragaylar olinadi, molekulyar tahlil hamda maxsus fonda sinash natijalariga ko‘ra gerbitsidga va ko‘sak qurtiga bardoshli bo‘lgan oilalar tanlab olinadi, kengaytirilgan holda tanlov ko‘chatzori tashkil qilish uchun seleksion ashyo tayyorlanadi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizim tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.